

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

5111000- Musiqa ta'limi yo'nalishi

4-kurs talabasi

Isroilova Umida Abdumannonovna

Bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: O'quvchilarning musiqiy ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishda mustaqil fikrlashning o'rni.

Ilmiy rahbar:

G'. NAJMETDINOV pfn dotsent

QO'QON – 2013

**MAVZU: O'quvchilarning musiqiy ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirishda
mustaqil fikrlashning o'rni.**

REJA

Kirish

Asosiy qism

I.1. o'quvchilarni musiqa madaniyati darsida milliy musiqa an'analaridan foydalangan xolda qobiliyatlarini rivojlantirish

I.2. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatini o'stirishda berilayotgan ta'limga bugungi zamon talabi.

II.1. Barkamol avlodning mustaqil fikrlashida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari.

II.2. O'quvchilarda ijodkorlikni kamol toptrishda musiqa darslarining ahamiyati va o'qituvchining ro'li.

III. O'zbekiston sharoitida moliyaviy iqtisodiy inqirozni bartarf etish yo'llari va choralari.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilmiy raxbar: p.f.n. dotsent G'.M.Najmetdinov

Mavzuning dolzarbligi

Umumiy ta'lim maktabi o'quvchilarini professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish va undan ta'sirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatining g'oyat xilma – xil musiqaviy estetik faoliyatining asosiy bilimlariga, ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i kerak.

Yosh avlodni mustaqil va ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o'rgatish istiqloq davri o'zbek pedagogikasining **eng dolzarb vazifalaridan** biridir. SHunga monand tarzda ta'lim oluvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning yangi va samarali yo'llarini izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, balki barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirga qadar yaratilgan ilmiy adabiyotlarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish borasida garchi yo'l – yo'lakay bo'lsada, turlicha qarashlar mavjud. Masalan bazi bir olimlarning fikricha, ijodiy fikrlash malakasini shakllantirish uchun o'quvchilarning bilimini anglab o'tish imkoniyatlarini rivojlantirib turli ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Mazkur nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg'ulotlardan foydalanish mumkin.

Musiqiy ta'limning taniqli metodistlari fikricha, avval o'quvchilarga tinglash uchun repertuar tanlash, muayyan musiqiy asarni ajratib olish, ajratib olingan asarni namunali ijrosi namoyish etilishi tavsiya qilinadi. Biroq olimlar o'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan qiyoslanib o'quvchiga zarur maslahatlar berilishi lozimligini e'tibordan chetda qoldirishgan. Bizningcha, tanlangan repertuardagi musiqiy asar o'quvchi tomonidan ijro etilganda asarning har bo'limi namunaviy ijro bilan bosqichma – bosqich qiyoslanib borishi lozim. SHundagina o'quvchi o'zining kamchiliklarini tez ilg'ab oladi.

Tadqiqot maqsadi.

Musiqqa insonga tez ta'sir etuvchii emosional 'issiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqqa inson ru'iyatini ajralmas qismi bo'lib 'isoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni xis eta oladigan, o"z kasbiga, Ona vataniga me'r qo'ygan bo'lisbi kerak. SHu bois o'quvchilarda inson maonaviyatining tarkibiy qismi bolgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash, musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi.

Tadqiqot vazifasi

Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqqa O'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. O'quvchilarda musiqqa sanoatiga bo'lgan qiziqish va mehr muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy ijodkorlik va 'is - tuy'ularini rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni a'loqiy - estetik tarbiyalash
4. Musiqqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyiq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerar.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'qituvchining professional va maxoratiga bogliq.

- tanlangan mavzu asosida sinov tajriba ishlari tashkil etib, xulosalar yozish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va metodologik asosi.

O'zbekiston respublikasi prezidenti I.A.Karimovning nutqi, farmoishlari, asarlaridagi fikrlari, sharq mutafakkirlari, pedagogika soxasidagi buyuk namoyondalar fikrlariga tayangan xolda yozildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi.

Musiqqa madaniyati darsining yetakchi faoliyati bo'lgan musiqqa savodini o'rganish qismida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyaga yondoshgan holda amalga oshirildi.

Mutaxassislarning fikricha, musiqqa savodi darslarida o'quvchilarni tasavvur va tafakkur qilishlari uchun o'qitishning ikki asosiy yo'nalishi mavjud. Ular besh chiziqli

notada ko'p ishlatiladigan shartli musiqa belgilarini puxta o'zlashtirish, melodiya, ritm, interval, akkordlar milliy musiqaning asosiy shakli, dirijyorlik malakasini shakllantirish. Mutaxassis tomonidan alohida ko'rsatilgan belglar musiqiy ta'lim uchun umumiy xarakterga ega. Bundan tashqari mutaxassis ta'kidlagan "Tasavvur va tafakkur, xayol" ning shakllanishi degan gap. To'g'ri, tadqiqotchi tomonidan qayd etilgan milliy musiqaning o'ziga xos tomonlarini tushuntirish va musiqa tinglashda asarni to'liq eshittirishdan tashqari uni qismlarga bo'lib takrorlash, musiqa savodi, qo'shiq kuylash hamda musiqa tinglashni uzviy bog'liqligini ta'minlash o'quvchilarga ijodiy musiqiy tafakkur yurita olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu jarayonda ham turlicha aniq metodik yondoshuvlar va tavsiyalarni ishlab chiqish talab etiladi.

Musiqa darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatishning eng qulay usullaridan biri musiqa mashg'ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi musiqa darlarini o'quvchi tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlarga jratishi zarur. Musiqa darslarini guruhlashtiruvda o'quvchilarning musiqa faniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqa tinglash, keyin musiqa savodxonligi hamda ijro taqqoslashdan borat bo'ladi. Ayniqsa, darsning uchinchi – ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchi yoki o'qituvchining o'tilgan mavzu yuzasidan bilimlari tekshiriladi. Ijro o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namundagi ijro bilan taqqoslanib ta'kidma – ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinmogi zarur. Musiqa ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ustida mustaqil ishlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishiga undaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, musiqiy ta'lim doirasidagi bilimlarni hamma o'quvchi bir xilda o'zlashtira olmaydi. Chunki ularning musiqiy asarni anglash, musiqiy janrlarga munosabati turlicha. Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda yuqoridagi ijro va qiyoslash metodidan foydalanishgan oldin ta'lim oluvchilarni ham muayyoyan guruhlarga ajratish ya'ni tabaqalashtirish lozim.

O'quvchilar bilan yakka holda mashg'ulotlar olib borishda yuqorida tavchiya etilgan ijro va qiyoslash metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday mashg'ulotlarda yakka holda ishtirok etuvchi o'quvchini uning mahoratidan, o'zlashtirishning darajasidan qat'iy nazar o'qituvchi o'ziga ruxan ergashtirish, o'zining professional ijrosi bilan avvalo, uni qoyil qoldirish ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Musiqada o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo'llari

Umumta'lim maktablarida musiqada tarbiyasini oshira borar ekanmiz, o'qituvchi oldida o'quvchilarni o'z darsiga, musiqaga qiziqish va havas uyg'otish vazifasi turadi. Maktabda ayniqsa boshlang'ich sinflarda qo'shiq aytish, musiqada tinglashga nisbatan paydo bo'lgan qiziqish va moyillik, asta – sekin yoshlarning san'atga bo'lgan ijobiy munosabatlari va qolaversa yehtiyojlarining tarbiyalanib, shakllanib borishida muhim o'rin tutadi.

Musiqada darsi o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uning rang – barang sarmazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogik va professional mahorat talab etadi. Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab hamma murakkablik shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib, chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushinish, uning orombaxsh ta'siridan bahramand bo'lish bilim, malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his – tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq. Asarni ijro va idrok etishda his –tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa ularni tushinish va o'zlashtirish, to'yinish va zavq olish ham shunchalik ongli va chuqur bo'ladi. Bu holatlar o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero zerikarli va sokinlik xolati sinfda jonli hissiyot xolatini tashkil eta olmaydi. O'quvchilarni darsga qo'iqitirish birinchi navbatda tinglash va ijro etish uchun tinglanadigan asarlar repertuari bilan bog'liq. Boshlang'ich sinflar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezonini o'quvchilarning yoshlariga, qiziqishlari bilim va ko'nikmalar darajasiga mos bo'lish, mavzuning rang – barangligi, g'oyaviy – badiiy sifatini hamda pedagogik qimmatini bilan belgilanadi. Boshqacha so'z

bilan aytganda, maktabda o'quvchilarning yoshlari va idrok etish qobiliyatlari mas keladigan o'tmish va hozirgi zamonning eng yuksak g'oya va obrazlarini aks ettiradigan, o'zining shakl va mazmuni bilan go'zal va hayotbaxsh, nafis va hushohang asarlar yangrashi lozim. Zero, faqat mana shundu asarlarga o'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish va havas ug'ota oladi, ahloqiy – estetik hissiyotlarini zarur bo'lgan qobiliyatlarini o'stirib boradi. Bu o'rinda zamonaviy qo'shiqlar qatori xalq qo'shiqlaridan keng oqilona foydalanish darsini yanada qiziqarli va sermazmun bo'lishini ta'minlaydi, yosh ijrochilarda xalqimiz ijodiga, uning musiqa va qo'shiq san'atiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllantirib boradi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi.

O'quvchilarni darsga qiziqtirish darslarni naqadar qiziqarli, mazmunli, tushinarli va qolaversa, materiallarning rang – barang bo'lishlariga bog'liqdir. Musiqa asarlar, turfa tusdagi ko'rgazmali qurollar, musiqa haqidagi qiziqarli fakt va ma'lumotlarga boy bo'lgan, boshidan oxirigacha sust bo'lmagan sur'atda tashkil qilinadigan darslar o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Men Abdullo Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najon yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” degan fikrni ko'p lushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarbdir. Chunki ta'lim tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va rivoji ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmay turib esa biz ko'zlangan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi – deb aytgan edi prezidentimiz Islom Karimov.

Hozirgi davr dunyodagi g'oyaviy qarama – qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura koligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

SHuning uchun ham yosh avlodni milliy ong va milliy mafkura ruhida tarbiyalash ishiga barcha vositalar ishga solinmoqda.

Bu borada musiqa san'ati xususan qo'shiqchilik ikki buyuk san'at – she'riyat va musiqani o'zida mujassamlashtirgani holda katta tarbiya quroliga aylanadi.

Psixolog olimlarning fikriga ko'ra, musiqa inson bosh miya yarim sharlarida joylashgan asab kataklarining eng ichki qavatigacha yetib boradi va u yerda mavjud bo'lgan boy energiya zaxirasini ishga soladi. Bu o'z navbatidagi asar mazmunidagi g'oyalarni badiiy obrazlarni yanada yaxshiroq tasavvu qilishga imkon beradi. SHuning uchun ham odatda "So'z tamomo bo'lgan joyda musiqa boshlanadi" deyiladi. Ya'ni fikrni so'z bilan ifoda qilib bo'lmagan taqdirda uni musiqa orqali ifodalash mumkin bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" darslariga kiritilgan qo'shiqlardasturida ham istiqlolni, mustaqilligimizni, o'zliogimizni, bayram va an'analarimizni, Ona Vatanimizga bo'lgan cheksiz tuyg'ularni ifodalovchi o'nlab asarlarni uchratish mumkin va bu asarlar o'quvchilarda ijodiy faollikni o'stirishga xixmat qiladi.

Xususan "Mustaqillik lolalarimiz" R.abdullaev musiqasi, N.Nazarov she'ri, "O'zbekiston Vatanim Manim" D.Omonullaeva musiqasi, J.Jabbarov she'ri; "Mustaqillik ayyomi" X.Rafiqov musiqasi, N.Narzullaev she'ri; "Navro'zjon" M.Otajonov musiqasi, Z.Mo'minov she'ri; "Xunarmand yoshlar madhiyasi" Q.Ma'murov musiqasi va she'ri; "Islom bobo" SH.Yormatov musiqasi, M.Rahmon she'ri; "Istiqlol haqida qo'shiq" Q. Ma'murov musiqasi, L.Qo'ldasheva she'ri; "Mehrjon" R.Alimov musiqasi, Q.Ota she'ri; "Yurtga sadoqat" H.Raximov musiqasi, S. Barnoev she'ri va boshqalarni shunday mavzudagi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Ayniqsa boshlang'ich sinflar dasturida shu yuksak ma'no va maqsadlarga yetaklovchi qo'shiqlar ko'plab kiritilgan.

Biz tanlagan mavzuning dolzarbligi shundaki, musiqa darslari oldiga ta'lim va tarbiya yo'lida katta vazifalar qo'yilgan. Nafaqat, ma'naviy, ahloqiy – estetik tarbiyani amalga oshirish balki qo'shiq va musiqa san'ati orqali o'quvchilarda komillik, uning go'zal tabiati insonlarga muhabbat, do'stlik, birodarlik, tinchlik g'oyalarini singlirish vazifalar belgilangan. Bu vazifalar musiqa darslarining har bir saviyasida o'quvchilarning ijodiy faolligini o'stirish orqali amalga oshirish mumkin. Zerikarli sust, lanj, ehtirossiz o'tkazilgan darslar hech bir samara bermasligi shubhasiz to'g'ri va

uning aksi har bir mashg'ulot jonli, qiziqarli, sinfning faolligi daorajasida olib borilgandagina ko'zlagan natidalarni berish muqarrar.

SHunday qilib, musiqa darslarida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish yo'llari bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, bevosita ijodiy faollikni o'stirishga bag'ishlangan adabiyotlar sanoqli. Ular ham bevosita musiqa bilan ijodiy faolligini oshirish yo'llari bo'yicha o'rganilgan adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, bevosita faollikni o'stirishga bag'ishlangan adabiyotlar sanoqli.

Eng muhimi bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'navit ruhida kamol toptirishda boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu masala ayniqsa bolalar qalbini o'ziga har tomonlama jalb etadigan musiqa san'atining ahamiyati beqiyos ekanini barchamiz tushunamiz. Zero, I.Karimov ta'kidlaganidek "Ma'naviyat uzluksiz harakatdagi jarayondir" , fikr, tafakkur, his – tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi.

Musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy ma'naviyatini shakllantirishga milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafasat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasi kengaytirishga, ijodiy izlanishga, mustaqillik vak tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa ta'limi Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni o'quvchilarining musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustaxkamlash, obrazli tasavvur qilish ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi.

Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsining mustaqil qismi emas, balki dars mavzusini ochib beruvchi musiqa faoliyatlari sifatida qabul etiladi.

Musiqa tinglash, qo'shiq kuylash orqali yosh avlodni ma'naviy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda ular axloqiy tarbiyani kamol toptirishda musiqa madaniyati fani katta ahamiyatga egadir.

II bob. Musiqa darslarida ijodkorlik faoliyati.

1. O'quvchilarning izlanish malakalarini o'stirishda ijodkorlik faoliyati

Yosh avlodni ijodiy fikrlashga o'rgatishga yangi va samarali yo'llarni izlab topish faqat o'qitish metodikasi sohasi taraqqiyoti uchun emas, barkamol shaxs tarbiyasini amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Turli metodik manbaalarda musiqiy bilim oluvchi o'quvchilarning ijodiy fikrlashga va ijodkorlikka o'rgatish borasida garchi yo'l – yo'lakay bo'lsa – da turli qarashlar mavjud. Masalan, ba'zi bir mutaxassislarning fikricha, ijodkorlikni shakllantirish uchun bolalarning bilimni anglab o'tish imkoniyatlarini rejalashtirib turli ilmiy axborotlardan to'g'ri xulosa chiqarib olishga o'rgatish jarayoni muhim hisoblanadi. Ushbu nazariy qarashning ahamiyatli tomoni shundaki, undan barcha turdagi musiqiy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

Musiqa ijodkorligi faoliyati bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun katta ahamiyatga egadir. Musiqa darslarida o'quvchilarni izlanishning eng qulay usullaridan biri musiqi mashg'ulotlarida ijro va qiyoslash metodidan foydalanish bo'lib, u quyidagicha amalga oshiriladi. Buning uchun musiqi o'qituvchisi musiqi darslarini o'quvchi tarbiyasiga ta'sirini hisobga olgan holda shartli ravishda guruhlariga ajratish zarur. Musiqi darslarini guruhlashtiruvda o'quvchining musiqi foniga munosabati inobatga olinishi shart. Mana shu nuqtai nazardan yondoshilsa, darsning tarkibiy qismi: musiqi tinglash, keyin musiqi savodxonligi ham ijro va taqqoslashdan iborat bo'ladi. Ayniqsa darsning ijro va qiyoslash bosqichida o'quvchining o'tilgan mavzusi yuzasidan bilimlavri tekshiriladi. Asar ijrosi o'quvchi tomonidan amalga oshiriladi. O'quvchi ijrosi namunadagi ijro bilan taqqoslanib ta'kidma – ta'kid uning yutuq va kamchiliklari tahlili qilinmog'i zarur. Musiqi ta'limiga bu usulda yondoshish bilim oluvchini o'z ushida mustaqil ishlashga, o'rganayotgan asar yuzasidan mustaqil fikrlashga, musiqiy asar ijrosiga ijodiy yondoshishga undaydi.

Musiqqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun juda muhimdir. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishitarbiyaga va qo'llab – quvvatlashga bog'liqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlarning rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Musiqiy qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan musiqiy tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

O'quvchi yoshlarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlantirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning musiqqa san'atiga bo'lgan munosabatlarini yanada o'stirish, turli san'at tadbirlarida ishtirok ettirish, olimpiadalar, san'at bayramlari, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish lozim.

Musiqqa ijodkorligi faoliyati musiqqa o'qituvchisi ijrosiga doira, chertib jo'rovoqlik qilish, tavsiya etilgan kuy ohangiga mos harakatlar topish, berilgan she'r parchisiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amaliyolari bilan bajariladi.

Musiqqa o'qituvchisi biror musiqani ijro etganda unga doira bilan sherik bo'lish, avvalo biror ijro etilgan kuyga chapak bilan jo'r bo'lishni o'rganishda boshlanadi. Chapak jo'r bo'lgan bola keyinchalik qoshiq, safoil kabi urma asboblarda jo'rovoqlikni o'rgangach doira bilan sekin -asta jo'rovoqlikni yaxshi o'rganib, asar ijrosiga qo'shilishga harakat qiladi.

Qoshiq ijro etayotgan vaqtda o'qituvchi qo'l harakati bilan odatda asarni ta'kidlash ya'ni qo'lini pastga tomon harakatlantirib kuchli hissani, yuqori tomon esa kuchsiz hissani ko'rsatib qoshiq kuylatadi. Bolalar esa ana shu harakatga monand ravishda boshqa asarlarga dirijyorlik qilib, o'z iste'dodlarini ko'rsatish mumkin. Bolaning bu harakatlarini kuzatib turgan o'qituvchi dirijyorning mehnatini, buning uchun ko'p o'qish va yaxshi musiqiy bilimga ega bo'lishi lozimligini o'quvchilarga tushuntirib borish kerak.

O'qituvchi jozibali kuylay oladigan iste'dodli bolalarga biror – bir kichikroq she'rni qo'shiq qilib yoki hirgoyi qilib berishini so'rash mumkin. Ba'zi qobiliyatli bolalar bu she'r parchasiga yangi kuy bastalay oladilar. Yoki ilgari o'roganagan biror qo'shiqning musiqasiga moslab bemalol kuylab beradilar. Bunday holat iste'dodli bolalar tomonidan musiqa bilan harakatda ham sodir bo'ladi.

Ba'zan sinf kontsertida yoki maktabda o'tkazilayotgan bayram tadbirlarda har qanday iste'dodli o'quvchi ko'pchilik oldida sahnada o'zini "yo'qotib" sir bosib qo'shiq matnini yoki raqsdagi harakat semasini esdan ʻchiqarib qo'yishi mumkin. Ana shunday holda qo'shiq matnini musiqiy pauza paytida zudlik bilan to'qib yoki raqs harakatini vaziyatdan chiqibketa olishi ana shu bolaning ham iqtidori ham iste'dodi ham ijodkorligi hisoblanadi.

Musiqa o'qituvchisi bolalar tomonidan ijod qilib kelingan kuyga, qo'shiqqa, raqsga, musiqa savodidan tuzilgan masalaga ijobiy munosabatda bo'lishi, ularning ijodini qo'llab – quvvatlashi va rag'batlantirib borish zarur. Bularning barchasi bolalarning musiqa san'atiga bo'lgan mehrini yanada oshirishga ko'mak beradi.

2. Musiqa tinglash orqali bolalarda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini shakllantirish

Maktablar faoliyatini hozirgi nazariyasi va amaliyotda o'quv tarbiya jarayonining yangi yo'llarini amalag oshirish va uni olib borishning ko'plab variantlari mavjud. Har bir mafliflik hamda amaliyotchi pedagogik jarayoni o'zining individual ulushini qo'shadi. Lekin ko'p yangi texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni qo'llaniladigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega bo'lish shu umumiy belgilariga ko'ra tavsiya qilindi.

- qo'llanish darajasiga ko'ra;
- falsafiy asosi bo'yicha;
- o'zlashtirish kontseptsiyasi bo'yicha;
- asosiy rivojlantiruvchi omil bo'yicha;
- shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;
- mazmun xususiyatlari bo'yicha;

- boshqaruv turi bo'yicha;
- o'quvchiga yondoshuvi bo'yicha;
- yo'llaniladigan metodlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha;

Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha quyidagicha tavsiflash mumkin:

- qo'llanish darajasiga ko'ra;
umumpedagogik;
- rivojlantiruvchi omili bo'yicha: asosiy e'tibor jamiyatning faol ishtirokchilari bo'lgan barkamol insonlarni tarbiyalashga shaxsning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi;
- o'zlashtirish kontsepsiyasi bo'yicha: assounativ – reflektor bo'lib, namuna, o'rnak, ibrat ko'rsatishga tayangan holda;
- shaxsiy belgi sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;
- axborotli, yangi shaxsning bilim, malaka, ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan;
- mazmun xususiyatlari bo'yicha: dunyoviy, umumta'lim mazmunida bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonidva faoliyatni tashkil qilish va olib borishda didaktikaga markaziy o'rin beriladi.
- boshqaruv turi bo'yicha: an'anaviy mumtoz (klassik) bo'lib, unga ta'limning texnika vositalari qo'shilgan.
- bola yondashuvi bo'yicha: avtoritar.
- ko'p qo'llaniladigan metodlari bo'yicha: tushuntirish - ilyustratsiyalash
- ta'lim oluvchilar toifalari bo'yicha: ommaviy va boshqalar.

Musiqqa madaniyati o'quv fani umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartlari joriy etilgan va unda milliy musiqqa merosdan to'la qonli foydalanish imkoni beriladi. Bular xalq kuy va qo'shiqlari amaliyoti xonanada va sozandalarning ijodiy faoliyatlarida maqom, shoshmaqom, dostonlar va zamonaviy musiqqa mavzularida o'z aksini topgan. Musiqqa san'atining bu kabi

imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol shaxs bo'lib o'tirishlariga o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.

SHarq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim – tarbiyasi pedagogikasi azaldan “ustoz va shogird” an'analari misolida takomillashib kelgan. Keyinchalik esa o'qituvchilar asarlarni shogirdlariga nota yozuvlari orqali o'rgata boshlaganlar. Qadimgi Gretsiyada esa musiqa insondagi donolik, ijodkorlik, mardliq xususiyatlarini tarbiyalash mumkin deb hisoblangan. Haqiqatdan ham har bir san'at insonga ruhiy ta'sir ko'rsatadi. Uni ham san'atkorlarde ijro etishga, ijod qilishga yetaklaydi. Ayniqsa, musiqa inson ruhiyatiga emotsional ta'sir etishda katta kuchga ega.

Musiqa ta'lim boshqa fanlar kabi tarbiyaning asosiy vazifasini boshqara oladi. SHu bilan bir qatorda musiqa yoshlarning jahon xalqlarining umuminsoniy musiqa qadriyatlarini ham chuqur o'rgatishni xalqaro nufuzga moyil bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi. Musiqa san'ati sifatida ijtimoiy ong shaklidir. U kishini his – tuyg'ularini ifodalash bilan birga u hayot voqelik va davr in'ikosidir.

Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagi faoliyat turlari mavjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo'shiq ijro etish, musiqa savodiga oid bilimlarni anglab olish, raqsga tushish va musiqa sirlari ostida turli harakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosini maqsadli idrok etib borishdan iborat. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda eng avvalo o'quvchilarni tinglay olish madaniyatiga o'rgatish kerak. Musiqiy vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tinglashga o'rtash zarur. Odamlarni aksariyat ko'pchiligi jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki, uni tushunmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabroqdir. (Masalan simfonik musiqalar, opera va boshqalar) o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didni tarbiyalaydi. Ko'p sonli savodxon tinglovchilarni tarbiyalash uchun musiqani sevuvchilarni bolaligidan musiqani tushunishga va sevishga o'rgatib borish lozimdir. Musiqani sevish bu musiqani doim tinglash va uni ongli idrok etish demakdir. Avvalom bor o'quvchilarni tinglash va boshdan ohirigacha asarni

tinglashga o'rgatish kerak. O'qituvchi o'quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini aytib o'tish zarur. O'qituvchi tinglash davomida rahbarlik qilishi lozimdir. O'qituvchi tinglayotgan asar mazmuni orqali axloqiy estetik tarbiya berish lozim. Musiqa tinglashga o'rgatishda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar:

- musiqa san'atiga havas uyg'otish;
- musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali ularni qiziqtirish;
- bolalarda musiqiy ehtiyojni kuchaytirish;
- o'quvchilarda badiiy – ijodiy taassurotlarni to'plab borish.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to'htab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi, bu tabiiy va tarixiy jarayondir. SHuning uchun ham musiqa madaniyati o'qituvchisi o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur va vatanparvarliktarbiyasini amalga oshirishini ijodiy mahoratni, nafosatda badiiy didini o'stirishi, ijroviy fikr doirasini kengaytirishi, mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakllantirib borish lozimdir. Biz bilamizki, pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson mafaatlari tarbiya jarayoniga ta'siri o'tishini nazarda tutadi. Musiqa madaniyati o'qituvchining pedagogik mahoratlaridan eng avvalo birinchisi ta'lia – tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o'rganishi, ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o'qituvchilarning faoliyati ham o'rganib borilishi lozim. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishdan yaqindan yordam beradi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ko'zda tutilgandek, zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Fan va ta'limning nashriyot ba'zasi rivojlanadi. O'quv – uslubiy, ilmiy inovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammallashib, o'quv jaryoniga tadbiiq etib borilyapti. O'quvchining dars samaradorligini oshirish uchun inovatsion texnologiyalardan foydalanish yaqindan yordam beradi. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Jumladan: “Notalar olamiga sayohat” – ushbu

texnologiya boshlang'ich sinflarda o'tkaziladi. Sinf o'quvchilari bilan notalar haqida suhbat o'tkaziladi va ko'rgazmali qurollar yordamida qaysi chiziqda yozilishi ko'rsatiladi va yozdiriladi.

NOTALAR

Yangi metod va texnologiyalar bilan bir vaqtda musiqa madaniyati darsida o'quvchining so'z mahorati yuksak darajasida bo'lishi lozim. O'qituvchining asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib bershi, o'quvchilarni ajoyib va sehrlil san'at – musiqa olamiga olib kiradi va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini musiqa mavzulariga yo'naltirish mumkin.

Yangi metod va texnologiyalar bir vaqtda musiqa madaniyati darsida o'qituvchining so'z mahorati yuksak darajada bo'lishi lozim. O'qituvchining asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzusini tushuntirib berish, o'quvchilarni ajoyib va sexrli san'at – musiqa olamiga olib kiradi va qiziqarli suhbat bilan bolalar diqqatini mksiqa mavzulariga yo'naltirish mumkin. O'qituvchining musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa va qiziqarli bo'lish kerak. SHuningdek, o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirish lozimdir. Jumladan, uch daqiqali qiziqarli va obrazli hikoya bir necha soatlizavqli amaliy mashg'ulotni ta'min etadi.

Dars davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqotda bo'lgan usulni qo'llasa, musiqa haqida to'g'ri xulosa va mulohaza yuritishga yordam beradi.

Millatning kelajagi hisoblangan yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishishida, ularning ta'lim – tarbiyasi, ma'anaviy kamoloti masalasi darajasiga kztarilib, bu yo'lda qator maqsadli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda o'zbek xalqining milliy o'zligini anglash jarayoni jadallashishi munosabati bilan yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyasining ahamiyati beqiyosdir. Ayniqsa, bugungi texnikaning misli ko'rilmagan darajada avj bilan yuksalishi davrida mutaxassislar oldida yoshlar qalbiga musiqaning ijobiy hislatlarini to'g'ri singira olishday muhim vazifa turibdi. Jumladan, hozirda ko'plab yoshlarimizning G'arbning talo – to'n, shovqin – suronga boy, tushinarsiz musiqasini tinglash, buning oqibatida o'sib kelayotgan yosh avlodning kelajagiga

salbiy ta'sir ko'rsatishini anglab, buning oldini olish choralarini ishlab chiqish zarurdir.

Musiqani to'g'ri tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham san'at hisoblanadi. Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. Bu borada aytish mumkinki, hali ona qornidalik davridayoq o'sib kelayotgan homila tashqaridan eshitilgan musiqani tinglay oladi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, mumtoz, xususan SHarq xalqlarining mumtoz kuy va ashulalari, jahon klassik ohanglari har qanday holatda ham insonga ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Aksincha, o'zida to'palon, shovqin – suronlkn aks ettirgan musiqiy guruhlarning “Asar” lari insonda jirrakilik, tezlik kabi salbiy xislatlarni rivojlantiradi. SHu sababli umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi musiqa darslarida bolalarda musiqani to'g'ri tinglay olish madaniyatini shakllantira olish zarur.

Har bir xalqning milliy kuy va qo'shiqlari mavjud. Lekin yosh avlodni komil inson bo'lib,ularda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini shakllantira olishga ta'sir qiladigan o'zbek, xalqigagina mansub bo'lgan boy musiqiy merosi alohida o'rin tutadi. Barkamol avlod tarbiyasida xalqimizning orzu umidlari, hayotiy kechinmalari, ma'naviy dunyosini o'zida aks ettirgan alla, lapar, mehnat va marosim hamda boshqa xalq qo'shiqlari muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Anashunday boy merosni o'sib kelayotgan sh avlodni ongiga singdirish bugungi kun musiqa madaniyati fani o'qituvchisining oldidagi burchlardan biri bo'lmog'i shartdir.mazkur faoliyat turini kengaytirishni to'g'ri yo'lga qo'yishni avvalo oiladan, maktabgacha ta'lim muassasasidan, boshlang'ich sinf davridan boshlash maqsada muvofiq hisoblanadi. Buning uchun ta'lim muassasasining mutaxassisi turli faoliyat shakllardan foydalanish zarur. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida mazkur jarayonni o'yin ko'rinishda tashkil etish mumkin.

“Ohangni toping” – bilag'onlar orqali kichik yoshdagi o'quvchilarning musiqa tinglash bo'yicha egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, kengaytirish mumkin. O'yinni tashkil qilishdan oldin bolalar diqqati bir joyga jalb qilinib, o'yinning mohiyati tushuntirilib beriladi. Bu o'yinni kichik guruhlarga

tuzib, musobaqa tarzida o'tkazilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosan, o'zbek xalq kuyi va qo'shiqlaridan berilgan parchalar o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga undaydi. O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilarga uyga vazifa qilib uyda televidenie, radio orqalitinglashgan kuy va qo'shiqlarni tahlil qilishni topshirsa, bu holat o'quvchilarni doimiy ravishda musiqani to'g'ri tinglay olish madaniyatini shakllantirish va musiqani to'g'ri tanlay olish malakalarining o'sishiga ham olib keladi. Bundan tashqari o'quvchilarning maktabdan va sinfdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishda turli mavzudagi tadbirlarning tashkil etili ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan: "Milliy kuy va ohanglar kechasi", "Siz musiqani bilasizmi" viktorinasi, "Ohanglar ezgulikka yetaklar" singari badiiy – musiqiy tadbirlar orqali o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bilan bir qatorda ularni musiqani tinglay olish madaniyatini ham rivojlantiradi.

Darhaqiqat, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida musiqiy tarbiyaning naqadar ulkan omil ekanligi yanada ayon bo'lib bormoqda. SHunday ekan, yosh avlodni boy musiqiy merosiimzni o'rganishga, yengil – yelpi, tumtaroq ohanglardan qochib, ularning badiiiy didini, ijrochilik va ijodkorlikmadaniyatini ko'tarishga, ma'naviy olamini kenegaytirishga harakat qilmog'imiz kerak. Bu borada "SHoshmaqom" singari milliy merosimizni noyob durdonalari bilan bir qatorda jahon tan olgan Motsart, Betxoven, Bax, CHaykovskiy, Raxmanikov, Xachaturyan kabi buyuk kompozitorlarning durdona asarlarini ham o'z vaqtida o'rgatib, tushuntirib borishimiz zarur.

Buyuk yodgorliklar madaniy va ma'naviy merosimizni avaylab asrashimiz, yosh avlod tarbiyasida musiqa san'atining eng nodir durdonalaridan to'laqonli foydalanmog'imiz lozmi.

3. Musiqaga ritmik jo'r bo'lishda va ritmik harakatlarda ijrochilik va ijodkorlikka erishish.

Musiqa o'qituvchisi o'z darslarini shunday rejalashtirish lozimki, u har bir darsda o'zbek xalq cholg'u asboblariidan namunalar (hech bo'lmaganda rangli rasmini) olib kirsin. Birinchi darsda musiqa asbobi bilan tanishtirilsa va birorta kuy ijro etib

berilsa, ikkinchi darsda bir – ikta jonli ijro va magnit tasmasidan yoki disketdan shu asbobda ijro etilgan asar eshittiriladi. Uchinchi darsda esa o'qituvchi o'zbek xalq kuylaridan birortasini namunaviy chaladi, bolalar chapak, safoil, qoshiq , qayroqlar bidan jo'r bo'ladi. Munu shu yerda bir narsani aytib o'tish joizki, o'zbek musiqa asboblarning kichraytirilgan shakli mavjud bo'lmaganligi sababli dars jarayonida kattalarning ayrim urma – zarbli asboblardan qo'lgan payt esa muayyan tovush bolandligiga ega bo'lmagan musiqali o'yinchoq asboblari: shaqildoqlar, qalddiroqlar, shildiroqlar, usul beruvchi tayoqchalar, yog'och qoshiqlar, likopcha qutichalar, musiqali bolg'achalar, qarsildoqlar, do'loncha, turfa qo'ng'iroqchalardan: shuningdek faqat bitta tovush balandligiga ega bo'lgan musiqiy o'yinchoqlar: Qush xushtak, loy hushtak, danak hushtak, bulbulcha, surnaycha va boshqalardan ijodiy foydalanish mumkin. Yana darsda kattalar foydalanidan asbobyulardan safoil, qoshiq , qayroq , nog'ora, doiralar qo'l keladi. Yaxshi ijrochilikka albatta darslar davomida bolalarga jo'r bo'lishni o'rgatib borish bilan erishiladi.

Boshlang'ich sinflari o'quvchilarga o'zbek musiqa cholg'u asboblari tanishtirish cholg'u asboblari bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan: avvalo puflab chalinadigan asboblari (nay, qo'shnay, surnay, karnay) bilan, keyin jarang torli musiqiy urma asboblari chang bilan, so'ngra cherti va tirnab chalinadigan musiqa asboblari (qashqar rubobi, tanbur, dutor) bilan va hokazo.

Musiqa o'qituvchisi tomonidan darsga o'zbek musiqa asboblari namuna olib kirish bolalar uchun darsning eng qiziqarli qismidir. Chunki kattalar cholg'u asboblari jonli va haqiqiy musiqa asbob sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Musiqa asboblari birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik va musiqa qobiliyatlarni ravnasi uchun muhimdir. Bolalar shundoq ham hovlisida, oilada supurgi, lopatka (bel), paqirlarni "o'xshatib" chilishlari ularning ijodkorliklaridan va musiqa asboblari o'ta qiziqishlaridan darak berib turadi.

Musiqa asbobi o'qituvchisi tomonidan chalsa, bolalar o'zlarini namoyish qilishlariga, darsda faol bo'lishlarga yordam beradi. Darsga olib kirilgan musiqa asbobi o'qitishda ko'rsatmali didaktik qo'llanma bo'lib, o'qituvchiga bolalarning

musiqali – yensor qobiliyatlarini oʻstirishda ijodkorligiga ijodiy taʼsir etishda, ularni musiqa savodining elementlari bilan tanishtirishda yordam berish mumkin.

Oʻqituvchi kuzatish natijasida sinf bolalarining isteʼdodi va imkoniyatlarni hisobga olib, bolalardan kichik ansambl yoki arkestrda ishtirok etish maʼlum asboblarning mavjud boʻlishi va quyidagilardan iborat oʻqituvchi talab qiladi. Musiqa asboblarning nomi chalinish xarakteri, yoʻgʻon va ingichka (past va baland) tovushlarning joylanishini, foydalanishi va muomalada boʻlish qoidalari bilan, chalish usullarni egallaydilar, ular mustaqil va ansamblda umumiy dinamika tempga rioya qilib, oʻz yoʻllarni vaqtida boshlab va yakunlab qoʻshiqlarni va oʻyinlarni ijro etishlari mumkin.

Ishning yaxshi tekshirilgan metodlari – koʻrsatish va ogʻzaki tushuntirish qatoriga yangilari qoʻshiladi. Bola oʻziga berilgan asbobni oʻqituvchi koʻmagisiz chalish, u yoki bu asboblarning chalinishini eslash, ijodiy topshiriqlar bajarish va shu kabilar tavsiya qilinadi.

Musiqa asboblarini navbatma – navbat oʻzlashtirishi kerak. Avval bolalar asbobni, masalan, doirani chalish bilan tanishtirib, bir necha dars davomida ikki – uch asarga joʻr boʻlishni oʻrgatish mumkin. Baʼzan cholgʻu asbobini bolalar birgalikda koʻrib chiqib, xato qilganlarida tuzatib, uni chilish usulini mustaqil topishini topshirish ham foydali boʻladi. Bunda ritm – usul beradigan asboblarni bir vaqtda oʻzlashtirish mumkin.

Ilk bosqichdayoq bolani ansamblda ishtirok etishi zrrur boʻlgan hamkorlikdagi uygʻun harakatlarga oʻrgitish lozim. SHu maqsadda oʻziga xos “ritmik arkestrlar” tuzilib unda bolalar chapak chalib, oyoqlarini tapillatib, tayoqchalar, boʻsh yoki mayda tosh, noxot toʻldirilgan qutichalarni taqillatib chalishadi. Bu yerda ham turli ovoz berish shakllantiriladi. Agar kaftlarni yassi holatda boʻlsa, ovoz aniq va jarangli chiqadi. Bir qoʻlni uzatilgan yoki sal bukilgan barmoqlari bilan ikkinchi qoʻlning kaftiga urib ovoz chiqarishni oʻzgartirish mumkin. Tapillatish butun oyoq bilan, oyoq uchi bilan, poshna bilan hosil qilinadi, songa kaft, panjaning barchasi bolalarni jalb qilib, turli ritmik topshiriqlarni toʻgʻri bajarish va musiqa asbobini chilish malakalarini egallash imkonini beradi. Albatta bu mashqlarni bajarayotgan

vaqtda qa'iyatlilikni va tartib – intizomga ongli holda bo'ysinish o'quvchilardan talab etiladi.

Tajribalar darsda urma cholg'u asboblari dora, nog'ora, safoil, qayroq, qoshiq kabilar bo'lishi yaxshi natija berishini ko'rsatmoqda. O'qituvchi rubob (dutor, g'ijjak yoki biror asbob) da o'z bek xalq kuylaridan bolalar chaladi va buncha bolalarning chapak bilan jo'r bo'lishlarni taklif etadi. Avvaldan o'qituvchi kim chiroybli va to'g'ri chapak chalsa, “mukofot” iga stol ustiga terib qo'yilgan urma cholg'u asboblari cholib, musiqaga jo'r bo'lajagini aytib qo'yadi. Agar cholib beradigan kuyi magnit tasmasi yoki disketda bor bo'lsa, uni eshittirishga qo'yib, chapak chalish usullarini avval o'zi ko'rsatib bersa samara yaxshi bo'ladi. So'ngra o'zi kuyni ijro etib, barchani chapak cholib jo'r bo'lishga taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalarga urma xalq cholg'u asboblari tarqatadi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklar tushuntirilgach cholg'u asboblari tarqatiladi. Mazkur ijro avval cholg'u asboblari cholib jo'r bo'lish yo'lga qo'yilgach, qolgan bolalar chapak bilan jo'r bo'lishlari taklif etiladi.

Cholg'u asboblari chalishga ham intiladi, albatta. SHuning uchun cholg'uchilar almashtirib turiladi.

Vaqt kelib bolalarda mazkur ijrolarda yaxsh ko'nikmalar hosil bo'lgach, usul strukturasi va ijrochilik turlari bir oz murakkablashtiriladi. Masalan, “Andijon po'lkasi” ga cholg'ularda chalish va chapak bilan birgalikda og'izda “Bum – bak, bakka - bum” deb usuld berib ham jo'r bo'lish mumkin. Ayni holda sinfni ikkiga bo'lib, birinchi guruh chapak va cholg'uda, ikkinchi guruh esa ovozda usul berish bilan jo'r bo'lishlari, hatto sinf sohasiga hohlovchi bolalarni raqs bajarishga ham taklif etish mumkin. Boshqa bir vaqtda o'qituvchi doirada “Bum bak - ka” usulini aniq va tekis cholib turadi. “Bum” ga birinchi guruh bolalari, “bak-ka” usuliga esa ikkinchi guruh bolalari jo'r bo'ladilar.

Kuyning dokada ko'rsatiladigan grafik surati va uning ritmik tuzilmasiga teng chorak va nimchorak notalar obrazlari bilan tanishgach, bunday mashqlarni doskada kartochkalar vositasida yaratilgan kuyning ritmik tuzilmasiga qarab bajarish oson bo'ladi. Bunday darslar, avvalo dars mazmunini qiziqarli qiladi, ularni o'zbek xalq

musiqa asboblari olimi bilan tanishtirishlariga yordam beradi, o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqa – o'quv qobiliyatlari har tomonlama rivojlantirishni ta'min etadi. Umuman olganda, darsda o'zbek xalq cholg'u asboblari bilan tanishish va chalish ishini amalga oshirishda o'qituvchidan katta ijodkorlik va topqirlik talab etiladi.

Musiqa darslari jarayonida musiqaviy ritmik harakatlarni badarish faoliyati o'quvchilarning musiqaviy qobiliyatlari, xususan rit – usul tuyg'usi va asar badiiyatini harakatlarda ifodalash malakalarini rivojlantirish uchun ham muhimdir. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarurdir. Chunki yosh bolalarning me'yoriy rivojlanishida har qanday harakat turlari muhim rol o'ynaydi. Bu borada musiqa darslari mazmunida katta imkoniyatlar mavjud va musiqa darslari o'zining mazkur xususiyatlari bilan ham boshqa fanlardan ijobiy farq qiladi.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya darsidan tashqari boshqa fanlar darslari davomida o'qituvchi vaqti – vaqti bilan o'quvchilarning ruhiyatini hisobga olib, dars mazmuni va bolalarning fikrlash jarayonini to'xtatib harakatli pauzalar o'tkazadilar. Musiqa darslari bundan nafaqat istisnodir, balki musiqali harakat turlari o'rganilayotgan asarni harakteri, badiiy obrazlari, ifodaviy va ijro xususiyatlarini chuqur his etish hamda ular ma'lum darajada ijodkorona ifodalash uchun ham muhimdir. Ana shunda dars boshidan oxirigacha uzilmaydi va mantiqan bir butunlikni tashkil etadi.

Shuni ham aytib o'tish lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan dunyoga dong tartgan. Ammo maktab ta'lim – tarbiyada raqs sabog'i deyarli yo'q darajadiligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi.

Shu sababli musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarni bilishi ya'ni ijro eta olishi va darsda qo'llash usullarni puxta egallashi zarurdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yurish, yugurish, sakrashda harakat koordinatsiyalari yaxshi shakllangan bo'ladi. Ular o'z tashabbuslari va jondillari bilan turli ashyolar – koptok, tayoqcha, bayroqcha, sun'iy gullar, lentalar

yordamida yoki oyoqlarini tapillatish, qo'llarni siltash bilan ko'plab tanish musiqalariga harakatlar tuza oladilar.

Musiqa bilan harakatning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda bolalarni ritmni his qilishi faollashadi, ularning harakati musiqaning mazmuniga uyg'unlashadi. Harakat vaqti bolalarda ijodiy fantaziya kuchayadi.

Vaqt o'tishi bilan boladagi harakat faoliyatining xususiyati va mazmuni ancha o'zgaradi. Bolalar shu davrda har xil harakatlar, eng oddiy ermak o'yinlar musiqqa bilan harakatlar hamda to'g'ri harakat qilib yurishning ayrim usullari katta o'rin tutadi. Bolalarda harakat faoliyati takomillashib boradi, syujetlt rollarga bo'linib o'ynaladigan harakatli shakllanadi.

O'qituvchining vazifasi bolalar harakat faoliyatini shunday tashkil etishdan iboratki, ular maktab faoliyati davrida rivolantirishlari zarur bo'ladigan harakatlarning uyg'unlashtirish ma'nodagi ancha murakkabroq yangi shakllarini tobora faol ravishda egallab, o'zlarida bunday zarur sifatlarni shakllantirish uchun tinmay mashq qilib borsinlar.

Bolalarning psixik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi tufayli ularni turliharakatlarga o'rgatish vaqtida ko'rgazmalilik katta ahmiyat kasb etadi. Maktab bolalari aniq fikrlash, ijod va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Harakatlarni tovush orqali, masalan: musiqqa, qo'shiq, sanoq o'yinlar o'yinlari yordamida tartibga solinishi mashq xususiyatlarini, ularning sur'ati va maromini ifoda qilib, bolalarda ko'tarinki ruh paydo qiladi.

Dars mazmunida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

A) marsh musiqalari ostida qadam tashlash, yugurish, sakrash;

B) raqs elementlarini bajarish;

V) musiqali o'yinlar o'tkazish;

G) musiqaning xarakterlari (registrlari, uch tovushliklari, kuy tovushlarining gorizantal – sxematik tuzilmasi, ritm – usul tuzilmalari) ni qo'l va tana harakatlari bilan ifodalash;

D) musiqqa o'lchovlvrini oddiy takidlash (dirijyorlik qilish) va boshqalar.

Bunday harakatlar bolalarda vujudga keladigan aqliy jismoniy toliqishni tarqatish, bolalarni musiqa darslariga qiziqtirish hamda darsni mazmunan boyitish uchun ham muhimdir. Musiqali harakat turlari musiqa ostida sinfga kirishdan to musiqa ostida sinfdan chiqqunga qadar almashib turadi.

Raqs va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda musiqa jo'rligining ijro turlari va cholg'u asboblari namunalaridan to'g'ri foydalanish lozim. Yana harakatlarni amalga oshirishda musiqa fonagrammasi va o'qituvchining jonli ijrosi ham qo'l keladi. Jonli ijro ham cholg'u asboblarida bajarilsa bolalar ko'proq qiziqadi. Raqs namunalarini bajarganda doira chertib usul berish yaxshi natija beradi. Zotan, o'zbek xalq cholg'u asboblaridan to'g'ri foydalanish darsning milliylik asoslarini tashkil etish uchun ham zarurdir.

Xulosa shuki, raqs musiqalari o'quvchilarning darsda vaolligini oshiradi. Eng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarda muksiqa iqtidori, ayniqsa erkin raqslarda ritm tuyg'usi, ijodkorlik iste'dodi faol rivojlanadi va xususan, har bir bolaning musiqa o'quv qobiliyatlari darajasi yaqqol namoyon bo'ladi.

4. O'quvchilarda ijodkorlikni kamol toptirishda musiqa darsining ahamiyati va o'qituvchining roli.

Dars – maktabdagi o'quv ishining tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'quvchilarning doimiy guruhi – sinf bilan qat'iy jadval bo'ya shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishishi uchun xilma-xil metodlardan foydalaniladi.

O'qitish jarayonini o'qituvchi bilan shug'ullanuvchilaraning biror maqsadga qaratilgan, izchillik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalashi vazifalari har etiladi.

Musiqada darsida o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqada o'qituvchisi darsda istisnosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. SHuningdek, o'quvchilarning o'zlari orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab – quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishi barcha o'quvchilarning darsining o'zidayoq o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarini hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Har bir musiqada darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitish, ularning ong – bilim doiralarning kengaytirishi, musiqiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi yoki ilgari o'rganilganlarni takomillashtirish kerak. O'quvchilar darsdan – darsga go'yo pog'onadan – pog'onaga qadam qo'ygandek bilimning cheki yo'q karvonidan olg'a ilgarilabboradilar.

Musiqada darslarida o'quvchilarni musiqada sohasida har tomonlama rivojlantirishni nazarda tutiladi, ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi.

Musiqada darsi musiqada ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi. Go'zallik, daxldorlik tuyg'usini kompozitor yoki xalq musiqada asariga jo qilgan axloqiy – estetik mazmundan huzurlanish qobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir – biri bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi.

Ayni vaqtda dars o'zining mazmuni metodlari va tashkil etilishi bilan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sin ko'rsatib, ularda ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirib katta tarbiyaviy qimmatga ega bo'lishi zarur.

Darsda o'quvchilarni tarbiyalash o'qitish, rivojlantirish, ijodiy kamol toptirish, ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Biz musiqada pedagogikasining g'oyat muhim tamoyillaridan birdir.

Maktab o'quvchilarini professional musiqada faoliti tayoqraylaydi. Biroq musiqani tushunish uni idrok qilish va undan ijodiy tasirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqada madaniyatining g'oyat xilma – xil shakllarda musiqaviy – estetik faoliyatning asosiy bilimlariga,

ko'nikma va malakalariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tirglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda musiqa darsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat.

1. musiqa darsiga ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalarining kompleks tarzida amalga oshirilishini nazarda tutadi. O'quvchining shakllanishiga doir barcha jihatlariga ta'sir o'tkazadi.

O'quvchining musiqiy bilimlarini oshirish bilan birga aqliy qudrati va qobiliyatlarini rivojlantiradi, ijrochilik madaniyatini va ijodkorlik salohiyatini oshiradi, dunyoqarashini, axloqiy, estetik irodavqiy fazilatlarini mehnatga munosabatini rivojlantiradi.

2. dars o'tilishini dars o'tilish shakliga ko'ra qat'iy bir tizim bo'yicha olib boriladi: muayyan boshlanishidan, darsning maqsadlari va vazifalarini belgilashdan, musiqiy materialni tushinitirish, mutahkamlash va takrorlashdan, uy vazifasini berishdan iborat bo'ladi. Musiqfaviy faoliyat turlari o'zaro biri bilan bog'langan bo'lishi va bir – birini to'ldirish kerak.

3. dars o'qitish tamoyillariga muvofiq bo'ladi: u tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi, imiy tushunish uchun qulay hisoblanadi, musiqa asarlarini puxta va ongli tarzda o'zlashtirilishiga, musiqaviy malaka va ko'nikmalarini shakllanishiga, erkin ijod qilishga yordam beradi.

4. dars mazmuni o'quv dasturiga muvofiq bo'lib, u boshqa darslar tizimidagi bo'g'inlarni qamrab olad. Ilgari qanaqa asar o'rgangani va maktab o'quvchilari mazkur darsdan keyin nimalarni o'rganishlari zarurligini va maktab o'quvchilari mazkur darsdan keyin nimalarni o'rganishlari zarurligini hamda yodda tutishi shart. Faqatgina yodda tutish va bilish emas, balki musiqa faoliyatlari davomida keyinchalik o'rganilishi lozim bo'lgan ba'zi asarlarni oldindan tanishtirib keyin yo'lini vujudga keltirish kerak.

O'qituvchi, shuningdek, maktabdagi aniq vaziyatni musiqa darsiga doir jihozlarni, texnikaviy vositalarni mahalliy uslublar va tabiiy shart sharoitlarni va boshqa jarayonlarni hisobga oladi.

Musiqqa darsi ta'lim berishdan tashqari tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ular o'quv materiallarining mazmuni bilan ham shuningdek, maktab o'quvchilari shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishga qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi, tarbiyaviy vazifalar shaxsning axloqiy, irodaviy intellektual, emotsional fazilatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dars o'quvchilarni tarbiyalashning uzluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi.

O'z navbatida ularni tarbiyaviy vazifalari musiqqa o'quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan: shaxsning fazilatlari sifatda mustaqillik va bilim faoliyatini shakllantirish darsda ijodkorlik va topshiriqlarga mustaqil ravishda ishlashning har xil turlariga ko'proq e'tibor berilishini taqozo etadi.

Musiqqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijodkorligini vazifalari ham qo'yiladi. Bu birinchi navbatda maktabda musiqadan ta'lim berishni faol shakli bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytishga taaluqlidir. CHuqur halq an'analariga ega bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytish faqat musiqqa qobiliyatlarini emas, balki harakter sifatini dunyoqarashni, badiiy didini, fantaziyani, estetik tuyg'uni ham rivojlantiradi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan ishlarning xilma – xil shakllarni qo'shiq ijro etishni musiqqa savodini, musiqani idrok qilishni, musiqqa saboblrida chalishni, vokal ijodkorligini o'zida birlashtiradi,

Musiqqa asarining mazmunini tushunish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek, uning maxsus – tayyorgarlik egnaligiga bog'liq bo'lib, maxsus tayyorgarlik o'z navbatida tinglovchi e'tiborning faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. SHu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchilarning idroki bayroq bo'ladi. Musiqani tushinadigan o'quvchi badiiy didining yuksak darajasi bilan ajralib turadi, musiqqa shaklining o'ziga xos tomonini, mazmunini, musiqani rivojlanish tarixini tushunish asosida tinglovchi sifatda katta tajribaga ega bo'lish, musiqaviy – ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish asosidagina musiqqa asarini to'laqonli idrok qilish mumkin.

Musiqqa darsining maqsadi ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'anviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqaviy – ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligini puxta o'ylangan izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak.

Jamoa, guruh shaklida va yakka tarzda ishlashni mahirlik bilan qo'shib olib borish darsni tashkil etishda asosiy masala hisoblanadi. O'quvchi o'quv topshiriqlarni tashkil eta olishi, rejalashta bilishi va bajaoa olishi uchun uni jamoa bo'lib ham, yakka tarzda ishlashga o'rgatish, muhim ahamiyatga egadir.

Har qanday dars o'quvchining maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ustidan nazorat qilib borishini taqozo etadi. Bu o'quv materiallarini tushuntirish va o'zlashtirish xarakterini, o'quv va ko'nikmalarini shakllanish jarayonini ko'z oldimizga keltirishni imkonini beradi. Maktab o'quvchilari o'qishning borishini taxlil qilish, o'qituvchiga darsning ijobiy jihatlarini rivojlantirish va ko'zga chalingan salbiy holatlarni kamaytirish maqsadida unga tegishli tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Musiqqa darslarining vazifasi bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishiga o'rgatishdan iboratdir. Hoziri zamon musiqqa darsi xuddai ana shu fvazifani hal qilmog'i kerak va bu vazifani qanchalik faol va aniq maqsadni ko'zlagan xolda hal qilsa, maktab o'quvchilariga faqat musiqaviy taryubiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Har bir fan o'qituvchisi singari musiqqa o'qituvchisining shaxsining qimmatiga baho bersh tizimida uning professinal yo'nalishi muhim rol o'ynaydiki, uning negizida pedagogik faoliyatga bo'lgan extiyoj yotadi. U o'zida : bolalarda qiziqishni va muhabbatni, pedagogik ishga havasini, psixologik pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlikni pedagogik odobni, pedagogik tasavvurni, tashkilotchilik qobiliyatini haqqo'ylikni, dilkashlikni, talabgorlik va qat'iylikni, sobitqadamlilikni, vazminlikni, chidamlilikni, o'zi haqida fikrga ega bo'lishni, professional ish qobiliyatini, ma'naviy, eng avvalo, bilish extiyojini va qiziqishini, intellektual

faollikni, yangilikni his eta olishni, pedagogik bilimni mustaqil ravishda oshirishga tayyorgalikni mujassamlashtirgandir.

Musiqqa bola xissiyotini, ayniqsa, emotsional, estetik hissiyotini faol rivojlantiravdi. Musiqqa bola ijodiy iste'dodining rivojlanishiga turtki beradi. Musiqqa bola ruhiga faol ta'sir etadi, uning axloqiy estetik qiyofasi shakllanishida muhim rol o'ynaydi. SHu bois o'quvchilarga inson ma'naviy – madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqqa madaniyatini tarbiyalash, musiqqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun musiqqa o'qituvchisi oldida quyidagi vazifalar turadi.

- o'quvchilarda musiqqa san'atiga bo'lgan qiziqisho'ni oshirish;
- musiqqaviy – badiiy didni va musiqqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- musiqqa haqida bilim va malakalar doirasini tarkib toptirish;
- musiqqa faoliyatlari jarayonida badiiy ijodkorlik his – tuyg'ularni rivojlantirish;
- asarlarning badiiy – g'oyaviy mazmuni vositasida bolalarni axloqiy – estetik tarbiyalash;
- musiqqa darslari jarayonida kasb – xunar va mehnatga havas uyg'otish.

Manashu vazifalarni amalga oshirishda musiqqa o'qituvchisining professional darajasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqqa darsi o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanpavarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bolalarning musiqqa san'atiga bo'lgan muhabbatiga, ijodkorligiga, ijrochiligiga, talanti va iste'dodiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun musiqqa darsiga ajratilgan xona keng, yorug'lik bolalarga chap tomonlari tushib turadigan, havosi yangilanib turadigan bo'lishi dozim. Xona zarur ashyolar bilan jihozlanishi shart. Doskaning teng yarmida nota yo'li bo'lishi kerek. Xonada musiqqa asbobi iloji bo'lsa fortepiano, magnitafon yoki disket, quyuvchi texnik moslama hamda barcha sinflar uchun musiqqa tinglash va jamoa bo'lib kuylashga doir asarlar yozib olingan, magnit tasmalari va disketlar to'plami bo'lishi lozim. Yana xonada plakatlar,

testlar, nazorat ishlari, solifedjio va ashula to'plamlarini qo'yish va saqlashga shkaf ham bo'lish zarur.

Apustika sharoitlarini vujudga keltirish uchun sinf burchaklari, matodan tayyorlangan darpardalar ekranlar bilan to'sib qo'yiladi. Xona devorlariga bolalar kompozitorlarining portretlari, davlat ramzlari, derazalarga yorug' tushishiga halaqit bermaydigan pardalar osib qo'yilish keark. Sinfdagi hamma jihozlar o'z joy – joyiga qo'yilishi, ko'rinishi shunday chiroyli bo'lishi zarurki, o'qituvchi sinfga kirib kelganda o'zini kontsert zaliga kirib kelagndek his qilsin. Lekin xonani ortiqcha bezab, bachkanalashtirb yubormaslik kerak.

O'qituvchi juda talabchan, lekin shu bilan birga qo'ygan talablari adolatli va o'quvchilarga beg'araz munosabatda bo'lishi lozim. Biroq haddan tashqapri talabchan bo'lish va byuolalarni jiddiy va qo'rquv ostida tutib turish yaramaydi.

O'qituvchi ayrim vaqtdlarda bolalarni arzimagan sho'xligini “sezmasligi” , darsdan bir oz chetga chiqib bolalarga bir oz dam berish maqsadida bolalar bob so'zlar bilan hazillashib qo'yish ham mumkin.

SHuni ham bilish zarurki, o'qituvchi o'z obro'yiga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega . darsga kiriladigan barcha sinflrada o'quvchilar o'z o'qituvchilariga tanqidiyts ko'z bilan qaraydilar .ba'zi o'qituvchilarning dilimi va yaxshi sifatleri uchun hurmatъ qilsalar boshqalarning shu xususiyatъlari bo'lmashganlagi uchunhurmat qilmaydilar. Musiqa o'qituvchisi cholg'u asbobini jozibali chalsa, qo'shiqni yoqimli kuylasa, musiqa janrlari va kormъpozitorlar haqidaigi hikoyalavri bolalarni maftun etsa, 45 daqiqalik darsda o'zining o'qituvchilik rolini qoyilmaqom qilib ijro etsa, har fandanay vaziyatda bolavlar bilan ijdiy va iijobiy munosabatlar o'rnatib, boalarlar qalbiga yo'l topa olsa, bunday o'qituvchi bolalar mehriga muyassar bo'ladi.

I. bob. O'zbekiston sharoitida moliyaviy –iqtisodiy inqirozni bartaraf etish yo'llari va choralari.

1. Prezidenet Islom karimovning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaarf etishning yo'llari va choralari” haqida.

Mamlakatimizda baqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantish borasida amalga oshirib kelayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyish etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, alohida daromadlarni o'sishini ta'minlash, samarali tashqisavdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jalagini islox qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish bank – moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Biz mamlakatimiz ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning joriy va istiqboldagi chora – tadbirlarining belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqsodiy rivojlanish dasturini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai – nazaridan shakllantirishimiz va ulrani izchil amalga oshirishimiz taqazo etiladi. Bu boradagi chora – tadbirlar Prezidentimiz I.Karimovning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli moliyaviy – iqtisodiy inqirozning mazmun – mohiyati, namoyon bo'lish shakllari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan omillar bayon qilib berilgan.

Asarda o'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan.

1. mamlakatimizda qabul qilingan 2009-2012 yillarda jahon iqtisodiy inqirozi oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha inqirozga qarshi dasturni amalga oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli barqaror sur'atlarni va iqtisodiyotining mavozanatli rivojlanishini ta'minlash;

2. tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash buni birinchi navbatda xalqaro davlat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab katta bo'lgan raqobatbardosh maxsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

3. qishloq turmush sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish shifra tuzulmasini jadal rivojlantirishga,

mulkdorlik va kichik biznesning maqomi, o'zni va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xo'jaligini rivojlantirishini har tomonlama qo'llab quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli o'zaro chuqur bog'langan chora – tadbirlar keng kompleksini amalga oshirish;

4. aholi bandligini ta'minlash uning turmush sifatini oshirishning eng muhim omili sifatida xizmatlar ko'rsatish sohasi va kichik biznesini jadal rivojlantirish;

5. mamlakatni modernatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish;

6. banklar ishini yanada takomillashtirish va aholi, xhjalik yurituvchi sub'ktlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilish ni rag'batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarida belgilab berilgan O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'tishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajalari borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun – mohiyastini teran va chuqur anglab etilishini taqazo etadi. SHunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyaga ko'ra Prezidentimiz I.Karimovning Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganish, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarining tub mohiyatini anglash, 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo'nalishlarini bilish maqsadida maxsus kursni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda kun o'quv talabi o'quvchilarga ta'lim berishda: “Men o'rgataman, sen o'rgan” qabilidagi eski usullardan voz kechishni taqozo etmoqda. Endi o'quvchi dars jarayonida shunchaki tinglovchi emas, balki faol ishtirokchiga aylanishi lozim. Ma'lumki, “O'zbekiston Respublikasi madhiyasi” ni tinglash va kuylash umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflari dasturiga kiritilgan. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilaridan Davlatimiz madhiyasini makammal va bekami ko'st kuylab bera

olishlari talab etiladi. Mavzun puxta o'zlashtirish maqsadida, biz dastlab, VII sinf o'quvchilari bilan shu borada suhbat o'tkazdik. Suhbat asnosidagi savollar o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Savollar: Davlat madhiyasi boshqa savollardan nimasi bilan farq qiladi? Uni qay darajada ijro etishadi? Madhiyamiz kuylanganda biz qanday tuyg'ularni xis etamiz?

O'quvchilar savollarga javob berishda imkon boricha o'z fikr tushunchalarini to'la ifodalashga harakat qiladilar. Bu jarayonda barcha o'quvchilar qatnashishlari lozim. Aks holda, 2-3 o'quvchi faollik ko'rsatib, qolganlari o'zini kamsitilgandek his qilishi mumkin. Ushbu shubhada o'qituvchi bevosita ishtirok etmasada, u suhbat ma'rosimini boshqarib boruvchi mas'ul hisoblanadi. O'quvchilar berilayotgan axborotlarni o'qituvchidan emas, balki o'z sinfdoshlaridan oladilar, bu esa ularni yanada faollik ko'rsatishga undaydi.

Javoblar: Davlat madhiyasi bu oddiy qo'shiq emas, balki u davlatimizning belgisidir. Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikamizning ramzlari berilgan, bular; bayroq, gerb, madhiya va pul birligi (valyuta) dir. Ularning har biri davlatimizning mustaqilligini belgilab beruvchi ramzlardir.

Madhiyamiz – Respublikamizning musiqiy ifodasi. Har bir davlatning o'z madhiyasi bor. Davlat rahbarlarining uchrashuvlarida sha mamlakatlarning madhiyalari ijro etiladi. Turli majlislar, musobaqalar, bayramlar, ko'rik – konkurslar ham madhiyamiz bilan ochiladi. Madhiyamizda O'zbekistonimizning nomi ulug'lanadi. Yurtimizning tabiati, xalqi, millatlararo totuvlik, Ona Vatanimizga bo'lgan sadoqatimiz, mehrimiz haqida kuylanadi.

Ona Vatanimizni jondan sevishimiz belgisi sifatida, uning hurmatini ulug'lashimizni neamoyon etishimiz madhiyamizni o'rnimizdan turib, o'ng qo'limizni chap ko'ksimizga qo'yib kuylaymiz. SHu asnoda, qalbimizda ulug'vor, mustaqil davlatimiz borligidan faxr tuyg'usi paydo bo'ladi. Madhiya kuylash jarayonida dinamik tuslardan foydalanish uni yanada ifodali qilib kuylashga imkon beradi. Dastlab dinamik belgildoskaga zib chiqiladi. Yoki ko'rgazmali qurol vositasida ko'rsatilib, ularning har biri qanday tusni ifodalashi haqida fikr almashinadi. SHundan so'ng, bu belgilardan amaliyotda foydalanish ustida ish olib boriladi.

O'quvchilar bu belgilarning nimani ifodalashi xususida batafsil, qiynalmasdan so'zlab bera oladilar. Chunki, oldingi darslarda bular haqida o'quvchilarga atroflicha tushuncha berib o'tilgan. Madhiyaning har bir qatori kuylanganda uning qaysi dinamik tusda ijro etish lozimligi borasida fikr yuritiladi. O'quvchilar uni o'zlari mustaqil ravishda belgilab oladilar, o'qituvchi esa javoblarning qay darajada to'g'ri ekanligiga baho berib boradi va shu qatorni qayta kuylaganda belgilangan dinamik tusga xos jarangdorlikka ularning e'tiborini qaratadi. O'quvchilar shu tariqa ma'lum bilimlarni aqliy idrok eta boshlaydilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Musika madaniyati" darslariga kiritilgan kuylash uchun mo'ljallangan asarlarning aksariyat ko'ngilliligi kuplet shaklida yozilgan bo'lib, ularni kuylayotganda o'quvchilarning ijodkorlik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda, quyidagi tavsiyalarga diqqatni qaratish o'rinlidir.

1. O'quvchilarda qo'shiq o'rganish jarayonida, mustaqillik xususiyatlarini shakllantirish uchun asarning she'riy matnini suhbat yo'li bilan tahlil qilish lozim va bunda o'quvchilarning faol ishtirok etishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

2. Asarga xos dinamik tuslarni tanlash vazifasini ham o'quvchilarning mustaqil fikrlari asosida amalga oshiriladi.

3. O'quvchilarning ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish uchun boshlovchi kuplet va naqoratni mukammal o'rganish, qolgan kupletlarni esa, o'quvchilarning o'zlari topib, kuylashlariga imkon berish joizdir.

Mazkur usullardan kuylash uchun mo'ljallangan barcha asarlarni o'rganish jarayonida imkon qadar foydalanish mumkin.

Musika asarining mazmunini tushunish tinglovchining umumiy madaniyatiga, shuningdek uning maxsus tayyorgarlikka egaligidek uning maxsus tayyorgarlik o'z navbatida tinglovchi e'tiborining faollik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. SHu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan tayyorgarligi bo'lgan tinglovchilarning idrokibayroq bo'ladi. Musiqani tushunadigan o'quvchining musika asarlariga qiziqish doirasi modaning ta'siriga kamroq beriladi, badiiy didning yuksak darajasi bilan ajralib turadi. Musika shaklining o'ziga xos tomonini, mazmunini, musiqaning rivojlanish, tarixini tushunish

asosida, tinglovchi sifatida katta tajribaga ega bo'lish, musiqaviy – ijodiy faoliyat sohasida rivojlangan ko'nikma va malakalarga ega bo'lish asosidagina musiqa asarini to'laqonli idrok qilish mumkin.

Musiqaviy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak.

Xulosa va takliflar.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni taraqqiyotining intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadilar. Zero, huquqiy demokratik davlat va fuqorolik jamiyatini qurish sharoitida yangicha ahamiyatga ega. SHu o'rinda yoshlarning ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashida milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga ega. CHunki, aynin yoshlarimizning milliy musiqamizning roli alohida ahamiyatga egae chunki aynan yoshlarimizning milliy mmentalitetimizga xos bo'lag n qadryatlarni saqlab qolishda milliy musiqa san'atining ham o'z o'rni bor. Ma'lumki, milliy musiqa san'atimiz yoshlar o'rtasida samimiyatni, o'zaro mehr – oqibatni yanada o'stirishga xizmat qiladi. Musiqiy ta'limning mazmun va mohiyatini zaminida barkamol avlod komil inson tarbiyasi yotadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda musiqa san'atini rivojlantirish, farzandlarimiz musiqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan qator dasturva rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan mumtoz merosimizni asrab – avaylash va uni o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish hamda yoshlarimizni ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash kabi ezgu maqsadlarga qaratilgan “Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-taxnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 200-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora – tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoiyshi” musiqa rivojiga yanada hissa bo'lib qo'shiladi. Ushbu farmoyish nafaqat musiqa va san'at

maktablarini balki, umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslariga bo'lgan e'tiyuborini ham kuchaytirishga olib keladi.

Musiqa dars beruvchi pedagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida fikr yuritar ekanmiz, Prezident I.A. Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida aloxida ta'kidlaydi: agar insonning qulog'i yengil – yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, boora –bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olimini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gar emas. Oxir oqibatda bunday odam "SHashmaqom" singari milliy merosiimzning noyob durdonalri ham Motsart, Betxovn va CHaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi. Musiqiy ta'limning yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi muallimning shaxsiy ijtimoiy sifatlari har bir zamon taplabidan kelib chiqqan holda pedagogga qo'yiladigan talablar borgan sayin takomillashib, murakkablashib boraveradi.

Uzluksiz musiqiy ta'lim jarayonini amalga oshirishda pedagoglarning ijtimoiy sifatlari qanday bo'lishi kerak degan savolning qo'yilishi tabiiy, albatta.

Bunda biz birinchi navbatda ajdodlarimizning fikr – mulohazalarini hisobga olishimiz shart.

Xususan, qadimiy turk yerizada Xorazmda vujudga kelgan zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" da shunday deyilgan: Muallim koxinlarining burchlari bilimli, yaxshi bilan yomonni ajratib oladigan qilib tarbiyalash va to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir. "Noshud, yomon muallim o'qituvchi qalbidan hunarmandchilikni yo'qotar ekan, ey yazdan, yomon ustozdan o'zing asra" – deb yozilgan.

Musiqa ijodkorligi faoliyati umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturiga ilk bori kiritilmoqda. Bu faoliyat umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'tira bilish uchun katta ahmiyatga egadir. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosiga "dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlar (xususan raqs) topish, she'r parchasiga kuy "bastalash" kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Musiqa ijodkorligi faoliyati sinfdagi iqtidorli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar

cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq. o'quv dasturida tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasidan ortiq berilgan. Bu o'qituvchiga asarni sinf imkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalariga muvofiq tarzda tanlash o'qitish imkonini beradi. Ayni paytda, dastur o'qituvchiga dasturga kiritilmagan, ammo badiiy baksak tarbiyaviy jihatdan muhim, bolalar ijodiyotiga yo'l beradigan va o'quvchilar idrok amaliyotiga mos bo'lgan yangi asarlardan keng foydalanish huquqini ham beradi.

Unda chorak mavzulariga moslab asasalarni deyarli ikki hissa miqdorda tanlash va lozim bo'lgan dasturdan tashqari asarlardan ham foydalanish mumkin.

Nota savodi, cholg'uchilik, raqs harakatlar, shuningdek musiqa ijodkorligi faoliyati mazmunida tavsif etilgan asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ulani almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rivojlantirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishini taqozo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni kuchaytirmoq lozimki, garchi asarda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida – alohida ko'rsatilgan bo'lsada, ammo darslarni rejalashtirishda va ularni o'tishda musiqa faoliyatlari dars mazmunidan kelib chiqish va uning mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi. SHunday qilib, darsda musiqa faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi.

Aytilgan muammolar, fikrlar mulohazalar quyidagi takliflarni tavsiya qilish mumkin.

1. Musiqa o'qituvchisi darslar davomida ijodkor, izlanuvchan va iste'dodli bolalarani nazorat ostiga olishi kerak.
2. Iste'dodli bolalarning kelajakda musiqiy qobiliyatlarini yanada kamol toptirish uchun ularning ota – onalari bilan o'zaro aloqada bo'lish zarur.
3. Darsda bolalar ijodi va ijrochiligiga turtki beradigan ko'rgazmalar va ashyolarda ko'proq foydalanish lozim.
4. Ijodkor va izlanuvchin bolalarni musiqa to'garaklariga jalb etish hamda ular uchun alohida maxsus dastur va reja tayyorlash kerak.

Bolalar o'z sinfdagilarga dirijyorlik qiladimi, biror she'riy parchaga yangi raqs yaratadimi, biror ohanga mos o'zi she'r to'qiydimi, biror yakkaxon yoki ansamblning chiqishini fonagramma qiladimi bularning bari bolalarning ijodi. Bu bolalardan kontsert dasturida, maktabda o'tkaziladigan ajoyib tadbirlarda chiqishlar tashkil etib yaxshi samaralarga erishish mumkin.

Zero, yosh avlodda sagn'atga nisbatan iste'molchilik munosabati tashkillanishiga bir yoqlama bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun musiqa o'qituvchisi bolalarda badiiy jihatdan qimmatli asarlarga va musiqa san'atiga qiziqishini tarbiyalashga faol qo'shilmog'i kerak.

HULOSA

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalariga muvofiq xolda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning taxlili va ta'lim tizimidagi jaxon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy xayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va xal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Milliy dasturda ko'zda tutilgandek, zamonavaiy axborot texnologiyalari va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlash rivojlanib bormoqda. Fan va ta'limning nashriyot bazasi rivojlandi. O'quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy texnologiyalar mukammalashib, o'quv jarayoniga tatbiq etib borilyapti.

Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmuni tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir – biri bilan uzviy aloqada bo'lib, ulardan birortasini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani (qaysi mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchimiz yoki o'rgatmoqchimiz, degan savol tug'iladi.

O'rgatish ham, o'rganish ham ularning ohirgi natijasi ham ta'lim mazmuniga bog'liq.

Har xil mazmundagi matnlarni o'ziga xos usullar bilan o'zlashtirish qabul qilinganligi uchun o'rgatishning qanday bo'lishi uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi, ya'ni o'rgatuvchiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, didaktik tafakkur bu – o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi.

Shu boisdan ham, pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta'lim texnologiyalariga o'quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Xozirga kundagi eng dolzarb masala va vazifa ta'lim standartlarini o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Agar bu vazifa amalga oshirilmas ekan, ta'lim – tarbiya sohasida sifat va samaradorlikka erishish, o'quv jarayonini takomillashtirish masalalari hal etilmay qoladi.

- Pedagogik texnologiya hozirda barcha pedagogik kasblar hamda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog'liq kasblarning asosini tashkil qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar xabardor bo'lishlari zarur.

Ta'lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim – tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi.

O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni xisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori jumladan musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham DTS larning joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'la qonli foydalanish imkonini beradi. Bular amaliy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari.

Maqom, shashmaqom dostonlar va bugungi zamonaviy musiqada o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manbaa bo'lib xizmat kiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi pedagogikasi va uning mukammal ustoz va shogird an'analari misolida takomillashib borgan. Davlat ta'lim standartlarida ommaviy xalq musiqa pedagogikasi, professional musiqa ijodkorlari, musiqa ijrochilari (sozanda, xonandalar) katta ashulachilar, maqomchilar, dostonchilar asarlarning elementar asoslarini o'rganish me'yorlashtirilgan. Musiqa ta'limida davlat ta'lim Standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tassavur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy, musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqani badiiy idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad bo'lib xisoblaniladi. Shuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorni rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqni oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy extiyojlarini qondirish musiqa ta'lim – tabiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jaxon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga moyillik bo'lgan madaniy durdonalardan baxramand bo'lishni ta'minlaydi.

Jamiyat taraqqiyoti hech qachon to'xtab qolmaydi, uning g'ildiragi doimo oldinga qarab aylanaveradi bu tabiiy, tarixiy jarayondir. Shuning uchun ham musiqa madaniyati o'qituvchisi, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatining shakitllantirishi, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishini, ijodiy mahoratning, nafosatda, badiiy didni o'stirishi, fikr doirasini kengaytirishi mustaqillik va tashabbuskorlikni muntazam ravishda shakillantirib borish lozimdir. Biz bilamizki pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishini, uning

qonunlarini ochib berishi va shu orqali inson manfaatlarini tarbiya jarayoniga ta'sir etishini nazarda tutadi.

Musiqaning madaniyati o'qituvchisining pedagogik mahoratlaridan eng avval birinchisi ta'lim – tarbiya sohasida o'rtirilgan tarjimalarni o'rganishi lozim. Bu albatta ko'pgina muammolarni hal etishda yaqindan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"
Toshkent. "Ma'naviyat". 2012 yil 35-76 bet
2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch".
Toshkent. "Ma'naviyat". 2008 yil 2845 bet
3. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi,
O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'ollari va
choralari. O'zbekiston, 2009- 56 bet
4. "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 – 2014 yillarda mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora – tadbirlari to'g'risida" gi o'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. Toshkent
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqaning 6- maxsus son.
Toshkent "SHarq" 1999 yil.
6. "Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi" Respublika ilmiy – amaliy anjumani materiallari. Toshkent 2009 yil

7. "Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida musiqa darslarini sifat va samaradorligini oshirish" Mintaqaviy ilmiy – nazariy anjumani materiallari. Namangan 2007 yil
8. Mualliflar jamoasi. Estetik tarbiya asoslari Toshkent. "O'qituvchi" 1988 yil
9. "Xalq ta'lim" jurnalining 2003-2007 yil sonlari.
10. "Uzluksiz ta'lim" jurnalining 2004-2005 yil sonlari
11. O. Fayziea "Maktabda musiqa" Toshkent 1991 yil
12. Safo Ochil Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari Toshkent 1995 yil
13. Mualliflar jamoasi. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. Toshkent 1996 yil
14. J. Fozilov va boshqalar. O'qituvchi ma'naviyatini tarbiyalash. Toshkent 2000 yil
15. B. Norboev. Istiqlo va istiqbol tarbiyasi. Toshkent. 1996 y
16. T. Mazxmudov. Estetik did haqida. Toshkent 1964 yil
17. Kollektiv. Esteticheskoe vospitanie v shkole. Toshkent 1991
18. O. Musurmonova. o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish. Toshkent 1993 yil
19. G. SHaripova. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent. 2009 yil
20. O. Bo'riev. Ma'naviyat gultoji. Toshkent. 1997 yil
21. D. Karimova. "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" 2012 yil

